

KOSONSOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR

*Maxsutaliyev Jahongir
Namangan davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koson havzasida joylashgan arxeologik yodgorliklarda XX asr 50-yillaridan boshlab olib borilgan tadqiqotlar to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'z: Mug'xona yodgorligi, A. Bernshtam, Yu. A. Zadneprovskiy, Guyshan, V. V. Bartold, Ixshid podshohi, Koson shahri, arablar, ekspeditsiya.

Professor A. Bernshtam tomonidan ilk bora topilib, keyinchalik boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan Mug'xona yodgorligi ham tuman tarixiga oid noyob tarixiy ma'lumotlar beradi. Mug'xona (qurum, mug'tosh)lar Kosonsoy tumanining shimolida joylashgan bo'lib, eramizdan avvalgi III – II asrlar va milodiy V – VI asrlarda o'tov shaklida toshdan yasalgan qabr inshootlari vazifasini bajargan. Mug'xona inshootlarining devorlari siniq va yupqa toshlardan qorishma ishlatilmay oval shaklida (5x8,5m) qurilgan. Ichki xonaning chiqish tuynugi bo'lib, toshtaxta bilan berkitib qo'yilgan. Mug'xonadan odam suyaklari, ko'za, tuynuk, dastakli piyola, pichoq, qilich, jez, temir o'q uchi, zirak, munchoq, omoch tishi va boshqa qator ashyolar topilgan. Idishlar qizil va qora angob bilan tirnab hoshiyalangan. Mutaxassislarning fikricha, Mug'xona topilmalari Shimoliy Farg'onaning yarim o'troq qabilalariga mansubdir. Haqiqatan ham, qadimiy Koson shahri jug'rofiy jihatidan ko'chmanchilar bilan dehqonlar, qo'shni davlatlar So'g'd, Choch o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajargan joyda o'rnatilgan. Bu hudud hukmdorlar yoz oylarida dam olishi uchun qulay bo'lgan va tabiati chiroyli maskan edi.

XX asrning 50 – 80- yillarida Mug' qal'ada qazishmalar o'tkazgan Yu. A. Zadneprovskiy ham Guyshan – bu hozirgi Mug' qal'a qoldig'idir, deydi. Ammo ba'zi olimlar bunga shubha bilan qaraydi. Jumladan, arxeolog B. Matboboyev Qadimgi Koson hududidagi – Mug' qal'a yodgorligi Guyshan bo'la olmaydi deb ta'kidlaydi[1]. Bizningcha, ushbu mulohazalarning har ikkisi ham fanda o'zining

butkul tasdig'ini topmagan bo'lib, bularni tasdiqlash Mug' qal'ada va tumanimiz hududidagi boshqa qadimiy yodgorliklarda qo'shimcha arxeologik qazishmalarni olib borishni talab qiladi.

Kosonning qoldiqlari hisoblangan Mug' qal'a yodgorligi hozirgi Kosonsoy shahridan 2 km uzoqlikda Kosonsoy daryosining yuqori oqimi chap qirg'og'ida joylashgan. Yodgorlik hozirda ikki qismga bo'lingan bo'lib, ularni Kosonsoy- Olabuqa avtomobil yo'li kesib o'tgan. Xalq orasida ular Mug'tepa va Mug' qal'a deb ataladi. Demak Koson ikki qismdan shahar (Mug'tepa) va qal'a Mug'dir (160x180 m). Qal'a (Mug' qal'a) shahar (Mug'tepa) dan shimoliy sharqda joylashgan bo'lib, maydoni kichikroq – 90x70 m. Hozirgi vaqtda uning yemirilgan devorlari va kuzatuv burchlari joylashgan. Koson geografik joylashuvi bo'yicha strategik nuqtai nazardan juda muhim ustunlikka ega.

Shahar soyining 40 metrlik qirg'oqlari bilan ikki tomondan o'ralgan. Janubiy G'arbiy burchak kuzatuvchilar uchun qulay joy bo'lib, u yerdan Kosonsoy jarliklarini bemalol kuzatish mumkin.

Umuman olganda, Koson shahri bundan 2200 yil avval qal'a shahar tarzda bunyod qilingan. Keyinchalik ilk o'rta asrlarga kelib Koson atrofidagi yerlar mahalliy aholi tomonidan uzluksiz tarzda o'zlashtirila boshlangan. IV – VI asrlarda Koson shahrining mudofaa qobiliyati qo'shimcha devorlar hisobiga kuchaytirilgan.

Taniqli sharqshunos olim V. V. Bartoldning yozishicha, xitoy manbalarida Kesay deb atalgan Koson turk xoqonligi davrida turk xoqonlari vakillarining qarorgohi bo'lgan. Al-Yaqubning xabar berishicha, VIII asrning oxiri – IX asr boshlarida Koson Farg'ona podsholigining poytaxti bo'lgan[2]. VI asrdan boshlab to arablar istilosigacha Kosonda Turk xoqonligining asoschisi hisoblangan Ashina xonadonidan chiqqan ishonchli vakili o'tirgan.

Shaharning salobatli mudofaa devorlarining qoldiqlari shu kunlarda ham qad ko'tarib turibdi. Tadqiqotlar davomida oz bo'lsada shahar hunarmandlari yasagan har xil sopol idishlar topilgan. Ular o'zining yasalish texnikasi va texnologik jihatidan yuqori sifatli ekanligidan aynan mazkur hududda o'troq shahar madaniyatiga xos xususiyatlar, xususan hunarmandchilik yuqori darajada taraqqiy

etganligidan dalolat beradi. Qolaversa shahar hunarmandlari tomonidan yasalgan va uning zamonaviy toponomiyasida Xumxona, Usta mahalla, Ko'nychilik, Qandolatchilik, Karnaychilar, Egarchilar, Dukchilar kabi ko'plab hunarmandchilik bilan bog'liq toponimlarning mavjudligi hunarmandchilik taraqqiyoti mahalliy asosga ega ekanligi hamda uzoq tarixidan dalolat beradi.

VIII asrning birinchi choragidan boshlab to IX asrgacha Farg'ona vodiysi, xususan, Koson shahri arablar tomonidan bosib olinadi. Lekin mahalliy aholining islom diniga kirishi boshqa joylarga nisbatan kechroq amalga oshadi. Bu borada Shoh Hakim Xolisning "Safedbulon qissasi" asarida va Is'hoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat (1862–1937) ning "Tarixi Farg'ona" kitobida muhim ma'lumotlar zikr qilingan. Chunonchi, ushbu manbalarda yozilishicha, xalifa Hazrati Usmon davrida Jarir bin Abdulloh nomli sarkarda Qubo, Axsi shaharlarini bosib olgandan so'ng Kosonda hukmronlik qilgan Ixshid podshohi ila jang qilmoqlikka keladi. Arab askarlari Chandavul (Chindovul) degan yerga tushib, ikki sahoba ila noma kirgizganligi va aynan mazkur yerda Koson hokimi elchilarni imtihon qilganligi borasida ma'lumot beradi[2]. Shuningdek, "Safedbulon qissasi" da Koson ahlining islom dinini qabul qilishi hamda arablar bilan birga Koson hokimi Ixshid va O'ng'or hokimi Karvonbos o'rtasida Safedbulon qishlog'ida bo'lgan jang ham batafsil bayon qilingan. Darhaqiqat, Farg'ona vodiysi arablar tomonidan bosib olinishi munosabati bilan arab tilidagi manbalarda Koson shahri to'g'risida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, arab va fors tilidagi manbalarda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrlardagi Movarounnahr viloyatlarining ichida nufuzli hududlardan biri Farg'ona vodiysi bo'lganligini tushunib olish qiyin emas. O'rta asr mualliflaridan Maqsudiy X asrda Farg'ona viloyatida 40 ta shahar bo'lgan deb yozsa, VIII asrda arab tarixchisi At-Tabariy Farg'onada – Xo'jand, Koson, Bab, Quva va Farg'ona kabi beshta katta shaharlar joylashgan deb ta'kidlaydi[3]. Umuman olganda, Farg'ona IX – X asrlarda iqtisodiy jihatdan quyidagi tumanlarga bo'linadi: Koson, Jidgil va Miyonrud. Bu tumanlarning hududida bir qancha shahar va qishloqlar mavjudligi manbalarda qayd etiladi. Mazkur shaharlar aholisi turg'un yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-

sotiq bilan shug'ullanib kelgan. Sharqshunos olim V. V. Bartoldning yozishicha, Koson VIII asr oxiri – X asrda Farg'ona hukmdorlarining poytaxti bo'lgan[4].

Ma'rifatparvar hukmdorlarning ilm-fan va madaniyatga doimiy e'tibor berishlari natijasida ko'plab iste'dod sohiblarining salohiyati, ijodi o'sib, yuksalib borgan. O'sha davr hukmdorlari tashabbusi bilan bunyod etilgan va faoliyat ko'rsatgan kutubxonalarda son-sanoqsiz noyob, qimmatbaho kitoblar, qo'lyozmalar to'plangan. Xususan, bu davrda Kosonni somoniy hukmdor Ibn Ahmad Asad boshqargan. Keyingi davrlarda ham Koson shahri o'z mavqeini saqlab qola olgan. Chunonchi Z. M. Bobur ham shahar haqida bir qancha ma'lumotlar qoldirgan. Lekin xonliklar davriga kelib Koson o'z mavqeini yo'qota boradi va kichik bir beklikka aylanib qoladi.

Shubhasiz, bu davrda mintaqa xalqlari madaniyatining o'sishida islom madaniyatining ahamiyati katta bo'ldi. Islom faqat dingina emas, balki yangi ma'naviy yo'nalish sifatida ham madaniy jarayonga, barcha musulmon mamlakatlari orasida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy aloqalarning kuchayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ma'naviyatda hurfikrlilik, dunyoviy bilimlarga hurmat, diniy oqimlar erkinligi ustuvorlik qilgan.

Ma'lumki, IX – XII asrlarda nafaqat dunyoviy fanlarning yuksalib borishi bilan, shu bilan birga, islomiy madaniyat va ma'naviyatning shakllanib, chuqur ildiz otib borishi, bu sohada yetuk olim-u ulamolar yetishib chiqib, Kosonning dovrug'ini olamaro ulug'laganligi bilan ham tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Исҳоқхон Жунайдуллоҳўжа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи... – Б. 282.
2. Аширов А. А. Косонсой шахрининг пайдо бўлиш ва ривожланиш тарихи // Наманган тарихидан лавҳалар. 1- китоб. 2009. – Б. 25
3. Бартольд В.В. Географический очерк Мовароуннахра. Т.1. – М.: 1963. – С. 219.

4. Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тяньшаня и Памиро-Алая // МИА №26. Москва-Ленинград, 1952. – С. 247.
5. Ҳомидий Ҳ., Аширов А., Умаралиев М. Косонсой тарихи ...– Б. 26